

# **Kimyo sanoatining asosiy ko'rsatkichlari haqida ma'lumot.**

Prezident Shavkat Mirziyoyev 7 iyul kuni kimyo sanoatida erishilgan asosiy ko'rsatkichlar va rejalashtirilgan loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi J.Mirzamahmudov O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-oktabrdagi qarori ijrosi doirasida sohani diversifikatsiya qilish va yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumot berdi. Qayd etilishicha, keyingi 3 yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 1,5 barobar, eksport hajmi esa 2 barobar oshgan.

Eng muhimmi, avvallari surunkali norentabellik bilan ajralib turgan soha 2021-yilni 1,6 trillion so'm sof foyda bilan yakunladi.

Joriy yilning olti oyida kompaniya korxonalari tomonidan qariyb 7 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, ishlab chiqarish hajmining o'sishi 11 foizni tashkil etdi. 218 million dollarlik mahsulot eksport qilindi.

Yil oxiriga qadar ishlab chiqarish hajmini 14 trillion so'mga, eksport hajmini 425 million dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Shu maqsadda ikkinchi yarim yillikda 650 ming tonna azot, 70 ming tonna fosfat va 120 ming tonna kaliyli o'g'it, 80 ming tonna polivinilxlorid ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

